

**O'QUVCHILARDA O'QUV BILUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHDA
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING O'RNI**

Mamajanova Rahima Olimjanovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti.

Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li

Ilmiy rahbar. Osiyo xalqaro universiteti t.f.f.d., (PhD)., dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15512942>

Bugungi XXI asr – axborotlashtirilgan jamiyat asri hisoblanadib, unda axborot texnologiyalarning roli va o'rni kundan – kunga o'sib borayotganli kun sayin sezilib bormoqda, hamda har bir jabhaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mazkur bosqichda hayotimizni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tassavur etib bo'lmaydi. O'zbekistonda ta'lif jarayonida AKTni qo'llash bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda va uning huquqiy va me'yoriy asoslari yaratilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydag'i "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080 sonli farmoniga binoan:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 200-tonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-iyuldag'i "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 117-tonli qarori;

Yuqorida qayd etilgan konsepsiylar, loyihamlar va Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari ta'lif jarayonida AKT ni qo'llash va bu orqali ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan[1].

O'zbekistonda axborotlashtirish jarayonida uning ham jamiyat, ham shaxsning o'rni beqiyosdir. Axborotlashtirish har bir istagan sohasini tubdan o'zgartirish qobiliyatiga ega.

Bunday sharoitda jamiyatdagi har bir shaxsning barkamollik sari intilishlari ro'yogga chiqadi. Chunki kerakli axborotlarni o'z vaqtida olish bilan birga ularidan to'g'ri foydalana olish insonni ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish zarurati 70-80 yillardan boshlab (o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishi pasayib ketgach) dars metodlarini, shakl va metodlarini o'zgartirish, yangilik kiritishdan boshlandi. Nostandart (ular 40-50 tadan oshdi) darslarga axborot texnologiyasini (kompyuter, filmoskop, kodoskop va h.k) va pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan takomillashtirib borilmoqda.

Mustaqillikka erishgach, ta'limda, umuman, barcha jabhalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, hech qanday to'siqlarsiz axborot izlash, olish, tekshirish, uzatish hamda axborotlarni yanada takomillashtirish yuzasidan qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinmoqda. Ushbu chora-tadbirlarning uzliksiz amalga oshirilib borilishi O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunlari va boshqa qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan kafolatlangan.

O'quv jarayoni axborotni taqdim qilishdek alohida va muhim funksiyani bajarishi lozim. Bu jarayonda "Inson – inson" va "Inson – kompyuter" o'rtasidagi aloqa bog'lovchi vosita "axborot" hisoblanadi. Ta'lim sohasining asosiy resursi – axborotdir, shuning uchun axborot tushunchasiga kengroq to'xtalib o'tamiz.

Yer yuzida jonli mavjudotlarning paydo bo'lishi bilan birgalikda ularning taraqqiyoti xamda atrof muhit to'g'risidagi, voqeа-hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish va ular to'g'risida axborot olish, shu axborotlar asosida yashash sharoitlarini belgilash, rivojlanish taraqqiyotini anglash katta ahamiyatga ega.

Axborot voqeа va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni beradi. Hodisa, voqealar mazmun – mohiyatini ochib beradi. Axborot termini kishilik jamiyatining barcha jabhalarida qo'llaniladi va ular asosida ta'lif – tarbiya jarayoni olib boriladi hamda pedagogik faoliyat boshqariladi[2].

Axborot – fanning eng umumiyligi tushunchalaridan biri. Axborot qandaydir ma'lumot, ba'zi bir dalillar, bilimlar va h.k.lar mohiyatini anglatadi. Hozirga qadar axborotning yagona ta'rifi ishlab chiqilmagan. Eng ko'p qo'llanayotgan ta'riflari quyidagicha ifodalanadi: axborot tashqi muhitga moslashish jarayonida undan olingan malumot[3].

Demak axborot degan savolga qisqacha javob berishimiz uchun ikkita ob'ektga: manba va iste'molchi orasidagi bog'lanishga murojaat qilishimiz zarur.

Axborot manbalari va iste'molchilarining har xilligi axborot shaklining turli ko'rinishda bo'lishiga olib keldi:

–belgili – turli ishoraviy belgilardan iborat axborotlar. Bular biror voqeа-hodisalar haqidagi axborotlarni uzatishda foydalilanadi;

–matnli – harf, raqam va belgilar to‘plamidan tarkib topgan ma'lum ma'noni anglatuvchi so‘zlardan iborat axborot;

–grafik – tasvirlardan iborat bo‘lgan tasavvur ko‘rinishidagi axborotlar.

Axborotning mavjud bo‘lishi, saqlanishi, uzatilishi uchun biror-bir material - ob'ekt bo‘lishi zarur. Bunday ob'ektlar juda ko‘p bo‘lib va ularning soni taraqqiyot natijasida o‘sib bormoqda.

Axborot tizimlarining asosiy vazifasi hodisa va jarayonlar kechishini boshqarish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Shuningdek, axborotlarga asoslangan, maqsadi oldindan belgilangan va shu maqsadga erishish dasturi ishlab chiqarilgan boshqariluvchi jarayonga maqsadli ta'sir ko‘rsatadi.

Ta'lif – tarbiyada axborot tizimlarining asosiy vazifalari – bu o‘rganilayotgan ob'ektga tegishli barcha axborot resurslarini eng maqbul boshqarish usullari yordamida iste'molchiga kerakli bo‘lgan axborotlarni ishlab chiqish va ulardan ta'lif ob'ektni boshqarishda foydalanish uchun axborotli va texnikaviy ta'minot muhitini yaratishdir.

Axborotlarni avloddan – avlodga uzatishning ahamiyati ta'lif – tarbiya ishining ahamiyati bilan hamohangdir[4].

Axborot texnologiyalari – bu tizim masalalar yechimini topish maqsadida axborotlarni yig‘ish, qayta yig‘ish, qayta tiklash, saqlash, ifodalash, tizimlash, uzatish va uni iste'molchiga foydalanishga qulay holga keltirish jarayonini kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiriladigan, tartibga solingan amaliy dasturlar majmuasidir.

Axborot texnologiyalari – jarayonlarni boshqarishdagi asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Tayyorlangan ma'lumotlarni tizimga ajratish va qayta ishlash hamda kerakli maqsadlar bo‘yicha qayta ishlangan ma'lumotlarni uzatishni o‘z ichiga oladi.

Axborotlashtirish faqatgina fan va texnika yutug‘i bo‘lmasdan, balki ular ta'lif, tarbiya, san'at, tibbiyot, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, sanoat va shu kabi sohalarning rivojlanishida ham doimo muhim omil bo‘la oladi.

Zamonaviy hisoblash texnikasi va aloqa vositalari asosida axborotlarni to‘plash, saqlash va kerakli manbalarga uzatishning zamonaviy usullari, ya’ni kompyuterlashtirilgan usullarigacha rivojlanib boraveradi.

Xulosa qilib aytganda axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi, bu sohadagi ishlarni jonlantirib yubordi, ya’ni endigi hayot nafaqat axborotlar, axborot texnologiyalari, balki axborot tizimlarini yaratishni taqozo etib qoladi va ulardan bilim bazalari, vazifalar, mantiqiy xulosalarni yechuvchi mashina kabi xizmat tizimlarini ham o‘z ichiga olishini talab qilmoqda.

Bu talablarni hal qilish esa ijtimoiy islohotlarga bog'liqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J, Yo'ldosheva F, Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lif sifat kafolati. –T.: 2008-yil, 86-bet.
2. Hasanboev J, To'raqulov X, Haydarov M, Hasanboeva O, Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008-yil. 30-31-bet.
3. Abdullaeva M. (ma'sul muharrir), Jalolov A, Nazarov Q, Nosirov R, Otamurodov S, Ochildev A, Ro'ziev R (rahbar), A. Sharipov, S. Shermuhamedov, Sh. Haitov, I.Hoshimova. Falsafa: ensiklopedik lug'at. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010-yil, 31-b.
4. Hasanboev J, To'raqulov X, Haydarov M, Hasanboeva O, Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008-yil. 38-41-bet.
5. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 82-85.
6. Asror o'g'li A. A. History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 339-342.
7. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
8. Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 842-845.
9. Ahmadov A. BUXORO AMIRLIGIDAGI AFG'ONLAR: HAYOTI VA FAOLIYATI XUSUSIDA //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 1304-1308.